

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

TEMURIYLAR DAVRİ TA'LİM TİZMİ .

Maturazova Xursandoy Maturaz qizi.

Email:*xursandoymaturazova551@gmail.com*

Telefon raqami: +998 88 551 31 03

Denov tadbirkorlik va pedagogika Institutining talabasi

Ziyoratova Sabrina Ravzatillo qizi

Elektron pochta:*sabrinaziyoratova@gmail.com*

Telefon raqami:+998 94 517 85 66

*DTPI Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti Tarix ta'limgan yo'nalishi 2- kurs
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola Amir Temur va Temuriylar davridagi ta'limgan tizmi, madrasanining ishi, maorif, ilm-fan yoritilgan bo'lib, adabiyotlar tahlili asosida tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: Tibbiyat, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, «Al-maqosid at-tolibin», A. Mets, toliblar, falakiyat, arab tili, Xuroson.

XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning ko'p sohalarida yuksalish yuz berdi. Jahonga mashhur olimlar, tabiatshunoslar va shoirlar yetishib chiqdi. Tibbiyat, riyoziyot, handasa, tarix, adabiyot, jug'rofiya, pedagogika, mantiq, falsafa, axloqshunoslik va boshqalarga e'tibor berildi. Ayniqsa, badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik tez rivoj topa boshladi. Temuriylar davrida bir qator atoqli allomalar: Sa'diddin Taftazoniy (1322-1392), Mir Sayyid Sharif Jurjoni, jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta ulush qo'shgan buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi Muqammad Tarag'ay Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, tarixda Ali qushchi nomi bilan mashhur bo'lgan Alouddin Ali ibn Muhammad qushchi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' olim-u mutafakkirlar yetishib chiqdi. XIV-XV asrlarda mantiq, tabiy-ilmiy fanlar, ayniqsa falakiyot, falsafa va axloqshunoslikka katta e'tibor berildi. Amir Temur Ko'ragoniy olimlarni juda qattiq

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

e'zozlagan. Xususan, Sa'duddin Mas'ud ibn Umar ibn Abdulloh Taftazoniy rahmatullohi alayhini juda ham hurmat qilar edi.(Sa'duddin Taftazoniydir (1322-1392) mantiq ilmining yirik vakillaridan biri. Yoshligidan ilohiyot fanlari, arab tili, nutq san'ati va mantiq bilan shug'ullanadi. Taftazoniy madrasalarda mudarrislik qildi.Taftazoniy 40 dan ortiq risolalarining muallifidir. Muhimlari: «Tahzib al-mantiq val-kalom» ("Mantiq va kalomga saykal berish"), "Muhtasar al-maoniy" (Ritorikaga oid qisqacha ma'nolar), "Al-irshod al-hodiy", (Arab tili gramatikasiga oid "Yo'l boshlovchi rahbar"), «Al-maqosid at-tolibin» ("Falsafa va kalomga oid "Tolibi ilmlarning maqsadlari") va boshqalar. Taftazoniy o'tmish olimlarining juda ko'p asarlariga sharhlar ham bitgan.¹⁾ Temuriylar davri ta'lim tizimi qator olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Jumladan, chet el olimlaridan V.V. Bartoldning "Ulugbek i yegovremya", A. Metsning "Musulmanskiy Renessans" kabi asarlarni keltirish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, Temuriylar saroyida turkiy tilda so'zlashgan bo'lishiga qaramasdan, madrasalarda darslar arab tili va yozuvida olib borilgan, ilmiy va badiy asarlar arab tilida yozilgan, shu sababdan madrasalarda arab tilining morfologiya va sintaksic bo'limlari chuqur o'qitilgan. Arab tili va yozuvini mukammal o'rganish, o'zlashtirish mudarris va toliblardan talab etilgan. Madrasalarda o'qitiladigan fanlar mudarrislар mavqeiga, toliblarning yoshiga, o'rganish saviyasiga qarab ta'lim ikki bosqichga bo'lingan. Birinchisi madrasa deb atalib, ilmi naqliya (Qur'on, hadis, fiqh, tasavvuf) – diniy ilmlar chuqur o'rgatilgan, ilmi aqliya (ratsional bilimlar - tarix, adabiyot - she'riyat, falsafa, jug'rofiya, aniq fanlar riyoziyot, handasa, ilmi hay'at, ilmi aruz, muhandislik, arab tili va uning morfologiyasi, mantiq tibbiyat, xattotlik san'ati) – tabiiy fanlardan esa umumiylar ma'lumot berilgan. Umumiy ta'lim madrasalarini bitirgan toliblar, kichik madrasalarda mudarris, masjidlarda imom, qozixonalarda mufti darajasida va boshqa sohalarda ishlaganlar. Quyi madrasani bitirgan toliblardan iqtidorlilari "Madrasayi oliyada" o'qishni davom ettirganlar. Madrasayi oliya ta'lim-tarbiyaning eng oliy darajasi hisoblanib, asosan, yirik markaziy shaharlarda Samarqand,

¹⁾ Toshkent islom instituti .Shamuratov Omirzaq "Amir Temur davri ilm -fan rivoji".

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Buxoro, Hirot kabilarda bo‘lgan. Toliblarga juma dam olish kuni hisoblangan. Toliblarga o‘qish bir yilda olti oy davom etib, sentyabrdan martgacha davom etadi. Qolgan oylar ta’til oylari bo‘lib, toliblar turli xil ishlar bilan band bo‘lganlar. Tadqiqotchilar ma’lumot berishiga ko‘ra, madrasalarni yiliga minglab toliblar bitirgan, jumladan Hirotdagি Ixlosiya madrasasida yigirma yil davomida o‘n mingdan ortiq toliblar bitirgan. Madrasalarda dars jarayonida talabalarning bilim darajalari tekshirilgan tanlovlар o‘tkazilgan va iqtidorlilar o‘qishni davom ettirgan. Madrasalardagi o‘quv muddati turlicha bo‘lgan². Jumladan, Mirzo Ulug‘bek davrida madrasalardabilim olish yigirma yilgacha davom etgan va o‘quv rejalar ham shu asosda tuzilgan. Bu ma’lumotlar bizni kunimizgacha saqlanib qolgan vaqfnomalarda o‘z aksini topgan. Ammo ayrim manbalarda Ulug‘bek madrasasini bitirganligi haqidagi hujjat olish muddati o‘n olti yil ham bo‘lganligi haqida ma’lumotlar uchraydi³. Jumladan, Shamsiddin Muhammad al-Balxiyning madrasa tomonidan berilgan hujjatida (sanad) ushbu ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. O‘rta asrlarda toliblar madrasalar yotoqxonalarida yashab o‘qishgan,xususan, Mavlono Mir Husayn Mu’ammi “Ixlosiya” madrasasida yashab, ta’lim olgan. Bu hujjatda (diplomda) toliblarga dars o‘tish, huquqi berilar edi. Sanadda (ijozotnama yoki diplom) tolibning o‘zlashtirgan fani, sohasi va asarlari qayd etilgan. O‘ta qobiliyatli bitiruvchilar o‘z madrasasida ishga olib qolingga, jumladan, o‘z zamonasining mashhur olim-u fuzaololari hisoblangan Ali Qushchi va Abdurahmon Jomiylar Mirzo Ulug‘bek madrasasida mudarris sifatida faoliyat ko‘rsatishgan. Mirzo Ulug‘bek maktabining asosiy mudarrisi Qozizoda Rumiy 1435 yil madrasada dars berish huquqini qo‘lga kiritgan edi. Bugungi kunda ushbu hujjat O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Institutining qo‘lyozma fondida saqlanmoqda⁴. Qo‘lyozmaning o‘zbekcha tarjimasini akademik Б.Аҳмедов

² Yusupova D.Yu. Jizn i trudi Xondamira. – Ташкент.: Fan, 2006. - S.149.

³ Valixo‘jayev B. Samarqandda oliy ta’lim - madrasayi oliya - universitet

⁴ Temuriylar tarixidan lavhalar. – Самарқанд.: SamDU, 2001. – B.28.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

“Ulug‘bek” nomli risolasida nashr ettirib, quyidagi jummalarda ushbu davr ta’lim va tarbiya jarayonini yoritdi: “...Shamsiddin Muhammad alBalxiy ilm tahsil qilish uchun vatanidan uzoq yerlarga safar qilishni ixtiyor qildi. Musofirlikning og‘ir zahmatlariga chidadi... U Samarqandda o‘n olti yil chamasi istiqomat qildi. Menden oliv sanad bilan ijozat berishimni iltimos qildi. Men uni iltimosini qabul qildim⁵. Qozizoda Rumiy nomi bilan mashhur bo‘lgan faqir ul-xaqir Muso Ibn Muhammad Ibn Mahmud 838 yil rajab oyining o‘rtalari edi. Madrasani tamomlagan tolibga bosh mudarris tomonidan muhr bilan tasdiqlangan hujjat (shahodatnama yoki sanad) berilgan. Ushbu sanad Temuriylar sultanatining barcha xududlarida mudarrislik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini bergen va bu musulmon Sharqida tan olingan rasmiy oliv ta’limn hujjati hisoblangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Temuriylar sultanatning barcha xududlaridan kelgan toliblarni ilmiy salohiyati yuqori madrasalarda o‘qishga kirishga, uni tugatishga, olimlarning bilimini, malakasini oshirishi borasida ko‘plab bizgacha yetib kelgan manbalardan ayrim bitiruvchilarining hujjatlari yetib kelgan, ammo to‘liq madrasa bitiruvchilarini bilishimiz o‘rganishimiz mumkin,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshkent islom instituti .Shamuratov Omirzaq “Amir Temur davri ilm -fan rivoji”.
2. Yusupova D.Yu. Jizn i trudi Xondamira. – Ташкент.: Fan, 2006. - S.149.
3. Valixo‘jayev B. Samarqandda oliy ta’lim - madrasayi oliya - universitet
4. Temuriylar tarixidan lavhalar. – Самарқанд.: SamDU, 2001. – B.28.
5. Axmedov B. Ulug‘bek. Esse. –Тошкент.: Yosh gvardiya, 1989.- B.112-113.

⁵ Axmedov B. Ulug‘bek. Esse. –Тошкент.: Yosh gvardiya, 1989.- B.112-113.